



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 330 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
A. S. Umarov	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе	92
Эргашев Серожиддин Султонмурадovich, Маматов Ислombек Ильесович	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi	102
Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	106
Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv	111
To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari	122
Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari	126
Haytbayeva S. R.	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
Kadirova Nigora Saxibjanovna	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
Samiyeva Zuleyxa Uktamovna	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari	139
Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish	145
Yuldasheva Dilorum Husniddin qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
Toshpulatova Aziza Toyirovna	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari	155
Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari	159
Begmatov Raximkul Olimovich	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari	164
Narziyeva Mastura Sunnatovna	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	168
Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	173
Qo'chqorov Nodir Bozorovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar	178
A'zamqulova Zilola Sunnat qizi	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....	183
Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar	187
Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari	190
Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich	

O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili.....	194
<i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i>	
Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati.....	198
<i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>	
Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili	202
<i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	
Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means	205
<i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish.....	208
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>	
Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari.....	212
<i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati	216
<i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari.....	221
<i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>	
Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication	224
<i>Fayziyeva Parvina</i>	
Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi	227
<i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>	
Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi.....	235
<i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>	
Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari.....	238
<i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	
Spheres of Language Use.....	243
<i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi.....	246
<i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari.....	251
<i>N. Jurayev</i>	
Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil	255
<i>Nargiza Ergasheva</i>	
Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli	259
<i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>	
Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar)	264
<i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi.....	269
<i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>	
Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi.....	273
<i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>	
Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori.....	278
<i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati.....	282
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish	285
<i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>	



Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...	289
<i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish	293
<i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....	296
<i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit	300
<i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari	303
<i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции	308
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты.....	312
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	317
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов	319
<i>Рахимходжаева В. С.</i>	
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета	325
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	



INSONLAR ORASIDAGI MUNOSABATLARDA NOVERBAL MULOQOTNING KOMPONENTLARINING KO'RINISHLARI

Soliyev Farxodjon Sodikovich

Psixologiya fanlari bo'yicha PhD
Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti 2-kurs magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada individual munosabatlardagi noverbal reaksiyalar va ularning shaxslarga ta'sir doirasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Noverbal reaksiyalarni bilish individual munosabatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim omili ekanligi yoritilgan. Shuningdek, individual munosabatlarda shaxsning o'ziga xosligi, temperamenti va psixologik tiplari noverbal reaksiyalarning turlicha namoyon bo'lishiga asos bo'lishi mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: noverbal, individual, muloqot, tafakkur, professional, kommunikatsiya, simpatiya, atraksiya.

Abstract: This article provides a scientific analysis of nonverbal reactions in individual relationships and their sphere of influence on individuals. It has been proven that knowledge of nonverbal reactions is an important factor in the successful implementation of individual relationships. The study also substantiates that personal characteristics, temperament, and psychological personality types may serve as the basis for different manifestations of nonverbal reactions.

Key words: nonverbal, individual, communication, thinking, professional, communication, sympathy, attraction.

Аннотация: В данной статье проведён научный анализ невербальных реакций в индивидуальных отношениях и сферы их влияния на личность. Доказано, что знание невербальных реакций является важным условием успешной реализации индивидуальных отношений. Также обосновано, что индивидуальные особенности, темперамент и психологические типы личности могут служить основой для различных проявлений невербальных реакций.

Ключевые слова: невербальный, индивидуальный, общение, мышление, профессиональный, коммуникация, симпатия, аттракция.

KIRISH

Hozirgi kunda butun jahonda kommunikatsiyaning keskin tarzda rivojlanishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, kommunikatsiyaning ma'lum bir sohalarida yechimini kutayotgan muammolar ham ko'paymoqda. Ijtimoiy munosabatlarda muloqotning mazmun darajasi keng tadqiq etilgan, ushbu muammo filologlar, faylasuflar, sotsiologlar va psixologlar tomonidan ilmiy asoslangan, ammo muloqotning munosabat darajasini o'rganish to'liq yakunlanmagan.

Muloqotning munosabat darajasi, ya'ni analog signallar og'zaki nutq bilan birgalikda yoki undan mustaqil holda muhim axborotlarni yetkazish, shaxslararo munosabatlarni tartibga solish va hissiy holatlarni ifodalashda katta rol o'ynaydi. Butun jahon psixologlarining tadqiqotlariga ko'ra, kundalik muloqotda uzatiladigan ma'lumotlarning sezilarli qismi, ba'zi manbalarga ko'ra 55% gacha bo'lgan qismi aynan noverbal vositalar (tana harakatlari, imo-ishoralar, mimika) orqali amalga oshiriladi. Shu sababli, noverbal xulqni tadqiq etish bugungi kunning eng dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda insonlarning muloqot samaradorligini oshirish maqsadida noverbal ishoralarni to'g'ri tushunish va ulardan o'rinli foydalanish shaxslararo, kasbiy va madaniyatlararo muloqot sifati hamda madaniyatini sezilarli darajada oshiradi. U kishining ichki holatini, yuborilgan axborotga bo'lgan munosabatini aniqlashga yordam beradi.

Shu bilan birgalikda, noverbal xulq psixologlar, pedagoglar, sotsiologlar va huquq-tartibot organlari xodimlari uchun shaxsning haqiqiy hissiy kechinmalari, stress darajasi, yashirin niyatlari va shaxsiy xususiyatlarini tushunishda muhim manba vazifasini o'taydi. U insonning ichki holatini aks ettiruvchi "oyna" hisoblanib, insonlarni tushunishga va ta'sir doirasini kengaytirishga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shaxsning psixologik xususiyatlarini ifodalash usuli, muloqotni boshqarish va nazorat qilish vositasi sifatida noverbal xulq-atvorning maqomi haqidagi ziddiyatli qarashlar bir qancha sabablar natijasida yuzaga kelgan. Bularning asosiy sababi noverbal xulq-atvorning o'ziga xos hodisasida, uni tajribaviy o'rganishning g'oyat murakkabligida yashiringan. Bu murakkablik noverbal xulq-atvorning ko'p qismliligidan, ular orasidagi aloqalarning turli darajadiligidan, shuningdek, shaxsning noverbal xulq-atvori shakllanadigan jarayonlarning nihoyatda xilma-xilligidan kelib chiqadi.

Noverbal xatti-harakatlarni o'rganishning barcha murakkabliklariga qaramay, psixologiyaning ushbu sohasida muhim vazifalar qo'yilmoqda va hal etilmoqda:

- inson va shaxslar guruhining noverbal xatti-harakatlarining invariant, vaziyatga bog'liq bo'lmagan tarkibiy qismlari izlanmoqda;
- turli xil o'zaro ta'sirlarning muayyan bosqichlariga mos keladigan noverbal xatti-harakat "naqshlari"ni aniqlash mezonlari ishlab chiqilmoqda;
- ijtimoiy-madaniy xulq-atvor me'yorlariga muvofiq noverbal xatti-harakatlarning o'zgarish yo'nalishlari belgilanmoqda;
- og'zaki va noverbal xatti-harakatlarning o'zaro ta'siri xususiyatlari aniqlanmoqda;
- noverbal xatti-harakatlarni qayd etish usullari yaratilmoqda va boshqalar.

Noverbal xatti-harakat psixologiyasining markaziy muammosi - noverbal xatti-harakatning shaxs va guruhning psixologik hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan o'zaro bog'liqligi masalasi turli tadqiqot yo'nalishlarini birlashtiradi.

Bu masalaning yechimi quyidagi savollarga javoblarni o'z ichiga oladi:

- noverbal xatti-harakat va insonning psixologik xususiyatlari o'rtasidagi aloqalar filogenetik va ontogenetik jihatdan qanday paydo bo'lgan;
- inson xatti-harakatining umumiy tuzilishidan noverbal xatti-harakatni ajratib olishning qanday mezonlari mavjud;
- noverbal xatti-harakatning u yoki bu naqshlariga qaysi psixologik va ijtimoiy-psixologik hodisalar mos keladi;
- noverbal xatti-harakat naqshlarining tashxis va muloqot vositasi sifatidagi qiymati qanday (belgilovchi vazifalar);
- insonning kundalik va kasbiy muloqotidagi noverbal xatti-harakatiga qarab, uning ruhiy xususiyatlari, holatlari va jarayonlarini to'g'ri anglash mumkinmi?

Bu savollarga javob izlash XX asr davomida noverbal xulq-atvor psixologiyasini tavsiflab keldi. Biroq, so'nggi 20-30 yil ichida nazariy va amaliy psixologiya vazifalari nuqtayi nazaridan noverbal xulq-atvorning maqomini aniqlashga urinishlar tufayli ularga bo'lgan qiziqish yanada kuchaydi. Amaliyotchilarning psixologiyaning ushbu sohasiga katta qiziqishi va g'arb psixologlarining inson noverbal xulq-atvorining mohiyatini tushunishga qaratilgan ko'plab urinishlariga qaramay, mazkur muammo hali to'liq yechimini topmagan.

Shu bilan birga, 80-90-yillar oralig'ida noverbal xulq-atvor psixologiyasi muammolarining keng va chuqur muhokamasi noverbal xulq-atvoriga shaxsiy yondashuvning rivojlanishiga, uning tabiatini ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-psixologik omillar doirasida ko'rib chiqishga olib keldi. "Noverbal til" sohasidagi tadqiqotlar yo'nalishlari hamda monografiya va jamoaviy ishlarda ushbu tadqiqotlar natijalarining tuzilishi buning yaqqol dalilidir. Ularda noverbal xatti-harakat individual va shaxsiy xususiyatlar bilan bog'liq holda o'rganiladi, insonni individuallik va muloqot subyekti sifatida tavsiflash imkonini beradigan xulq-atvor jihatlari tadqiq etiladi.

Bunday yondashuv yetarlicha barqaror bo'lib, ma'lum darajada milliy psixologiyada shakllangan xatti-harakatni tushunish usullariga muvofiq keladi.

L. S. Vigotskiyning dastlabki asarlaridayoq xulq-atvor bioijtimoiy tizim sifatida ko'rib chiqiladi va inson xulq-atvori bilan psixikasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik g'oyasi shakllantiriladi. Psixikaning eng nozik reaksiyalari "xulq-atvorning alohida tashkil etilgan va o'ta murakkab shakllaridan boshqa narsa emas" ekanligi ta'kidlanadi, ularning rivojlanishi esa "yangi aloqalar paydo bo'lishining bir lahza ham to'xtamaydigan jarayoni"dir ^[190-bet].

Bu jarayonga ijtimoiy komponent sifatida boshqa odamlarning xulq-atvori, shuningdek, madaniy xulq-atvor shakllari ham kiritiladi. Psixika va xulq-atvor birligi haqidagi fikr S. L. Rubinshteynning ifodali xulq-atvorni ko'rib



chiqishida markaziy o'rin egallaydi. U xulq-atvorni "ko'z bilan ko'rinadigan va sezilarli darajada berilgan narsa" deb ta'kidlaydi ^[152-163-betlar]. Xulq-atvor va psixikaning o'zaro bog'liqligi, shaxs rivojlanishi va xulq-atvorning o'zaro aloqadorligi haqidagi g'oya B. G. Ananov tomonidan muhokama qilinadi. Uning uchun xulq-atvor "turli ijtimoiy tuzilmalardagi odamlar bilan amaliy o'zaro ta'sir" sifatida namoyon bo'ladi ^[160-bet].

Uning fikricha, xulq-atvor omillarini hayotning aniq sharoitlari bilan bog'liq holda tahlil qilish, xulq-atvor jarayonlari algoritmlarini aniqlash va ularning tashqi ta'sirlar hamda inson xususiyatlarining muayyan natijalariga bog'liqligini prinsipial jihatdan mumkin qiladi (o'sha manba, 2-jild, 14-bet). Zamonaviy sotsiologiyaviy va etnopsixologik tadqiqotlar, shuningdek, atrof-muhitning insonning noverbal xulq-atvoriga ta'siri haqidagi ko'plab ma'lumotlar bir davr, bir doira va bir xil madaniyat darajasidagi odamlarda barqaror xulq-atvor shakllarining ("patternlar" algoritmlari) mavjudligini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bu shakllarda individual va shaxsiy xulq-atvor shakllari guruhviy va ijtimoiy-madaniy shakllar bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Vatan psixologiyasida odatda u yoki bu xulq-atvorning sababi sifatida alohida hodisa emas, balki hodisalar tizimi, umumiy vaziyat namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Agar vaziyatni unda harakat qilayotgan shaxsning xususiyatlari va o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqilsa, bunday yondashuvda nafaqat vaziyat xulq-atvorni o'zgartiradi, balki shaxsning xulq-atvori ham uning hayotiy faoliyati vaziyatini o'zgartirishi mumkin.

Bu jarayonda shaxsning subyektiv munosabatlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular odamlarning bir-biriga murojaat qilish shakllarida (ya'ni xatti-harakatlarida) namoyon bo'ladi va shu bilan birga niqoblanadi. Munosabatlarning vaziyatga, masalan, muloqotga ta'siri samaradorligi, uning natijalarini oldindan ko'ra bilish shunisi bilan murakkablashadiki, shaxs munosabatlari tuzilmasining xulq-atvor modeliga intensional, ongli, konvensional xulq-atvor shakllari bilan bir qatorda intensional bo'lmagan, ongsiz, nokonvensional shakllar ham kiradi.

Munosabatlar tizimining vaziyatga ta'sir etish samaradorligi, vaziyat ishtirokchilarining xulq-atvor modeli va shaxs tuzilishi, uning munosabatlar tizimi o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash ko'nikmalarining rivojlanish darajasiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Boshqacha aytganda, bu xulq-atvorning ichki psixologik, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-madaniy mazmunini ochib berish qobiliyatiga ham bog'liq. Bunday ko'nikmalar odamlarning birgalikdagi faoliyati natijasida shakllanadi.

Psixologiyamizda dastlabkilardan biri sifatida B. D. Parigin ^[141] shaxsning dinamik tuzilishini uning xulq-atvor modeli asosida o'rganish imkoniyati masalasini ko'tardi. U xulq-atvor tuzilmalari va ruhiy holatlar tuzilmalarining o'zaro bog'liqligi, ularning insonning muayyan vaqt yoki faoliyat davriga mos kelishini ta'kidlaydi.

V. N. Panferov terminologiyasiga ko'ra, shaxsning xulq-atvor modeli - bu uning obyektiv xususiyatlari, insonning psixologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari esa uning subyektiv xususiyatlaridir.

Obyektiv va subyektiv xususiyatlar, ya'ni tashqi va ichki xususiyatlar o'rtasida murakkab va ziddiyatli aloqa mavjud bo'lib, uning yo'nalishiga ijtimoiy-madaniy muhit sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. V. N. Panferovning fikricha, har bir jamiyat o'z a'zolarida o'z hayot tarziga mos keladigan shaxsiy sifatlarini va ularni ifodalash usullarini qayta yaratadi. Aniqki, "individning o'z tanasida jamiyat nuqtayi nazarini obyektivlashtirishi tananing madaniylashtirilishi uchun shart hisoblanadi - bu insonning tabiiy mavjudlik shartlarini universal vosita va belgilarga aylantirish... o'ziga xos matn, ijtimoiy xotira jamlanmasiga aylantirishdir". Shu bilan birga, yana bir narsa ravshan: "avtoritar tarzda" amalga oshiriladigan "tanani madaniylashtirish" insonning tanasi ustidan emas, balki uning shaxsiyati ustidan nazorat o'rnatish mexanizmlaridan biridir.

Chunki jamiyat inson xatti-harakati orqali aniq tashqi ifodalanishi va shu sababli atrof-dagilar tomonidan oson aniqlanishi lozim bo'lgan ijtimoiy maqbul xususiyatlarni qayta ishlab chiqaradi. Bu xususiyatlar ro'yxati turli tarixiy davrlarda o'zgarishi, turli ijtimoiy guruhlar uchun har xil bo'lishi mumkin. Lekin eng muhimi shundaki, bu xususiyatlarning xulq-atvor modeli ijtimoiy kutilmalarga mos kelishi, unda davr mafkuraviy talablari va shaxsga qo'yiladigan axloqiy-ma'naviy talablar aks etishi lozim. Bu fikrni V. Kuznetsovaning "Kinofiziognomika" kitobi yorqin ifodalaydi. Unda muallif ma'lum ijtimoiy kutilmalar nuqtayi nazaridan aktyorlarning tipik xususiyatlarini, shuningdek, davr talablarining o'zgarishiga qarab aktyorning tashqi qiyofasiga bo'lgan munosabatning o'zgarishini batafsil tahlil qiladi. Ushbu kitob yana shunisi bilan e'tiborga molikka, kino obrazlarini yaratish misolida jamiyatning tomoshabin shaxsi ustidan nazorat qilish mexanizmini aniq ko'rsatib beradi.

Bu mexanizm muayyan xulq-atvor namunalarini u yoki bu xususiyatlar majmuasiga qat'iy bog'langan holda kiritish orqali ishga tushadi. Shunday qilib, xulq-atvorning ijtimoiy belgilangan shakllari yordamida jamiyat "o'ziniqilar" va "begonalar"ga bo'linadi. Shu munosabat bilan jamiyatda eng ko'p tarqalgan xulq-atvor modellari o'rganib, uning shaxsga nisbatan qadriyatli yo'nalishlari haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Biroq noverbal xatti-harakatlarning ijtimoiy vazifalari tan olinishiga qaramay, uning tarkibiy qismlari qat'iy belgilangan ma'no-larga ega emas. Hatto ko'pincha xursandchilik belgisi sifatida qaraladigan tabassum kabi noverbal harakat

ham o'zaro munosabat turi va madaniyatga qarab o'z ma'nosini o'zgartiradi ("yapon tabassumi", "amerikalik tabassum" va hokazo).

Noverbal xatti-harakatlarning tuzilishi aks ettirilgan. Ularning eng muhimi optik tizim yordamida namoyon bo'ladiganidir. Tana harakatlari, qo'l imo-ishoralari, ko'z va yuz harakatlarining ko'rish orqali idrok etiladigan ko'lamli kinesika deb ataladi. Kinesikada markaziy o'rinni ekspressiv kichik tuzilma egallaydi, u ifodali harakatlar va fiziognomikaga bo'linadi. S. G. Gellershteyn va P. M. Yakobson fikriga ko'ra, turli ruhiy holatlarda muloqot jarayonida namoyon bo'ladigan ifodali harakatlar shu holatlarning tashqi ifodasi bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, u yoki bu shaxslar, narsalar yoki voqelik hodisalariga bo'lgan munosabatlarni ham aks ettiradi. Ushbu nuqtayi nazar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Individual munosabatlar bir qarashda emotsional hissiyotlarga asoslanganga o'xshasa-da, aslida bir insonning ikkinchisiga ko'ngil qo'yishi, tanlashi, birgalikda umr kechirishi jarayoni ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarga to'la bo'ysunadi. Individual munosabatlarning ijtimoiy voqelik sifatidagi qonuniyatlarini rus olimi L. Ya. Gozman atraksiya tushunchasi asosida tahlil etgan. Attraksiya inglizcha attraction - tortilish, intilish so'zlaridan olingan bo'lib, u bir insonning ikkinchi bir insonga nisbatan his qiladigan ijobiy munosabatini anglatadi. Har qanday ana shu zayldagi diadik, ya'ni diada - ikki kishi o'rtasidagi munosabatlarning boshlanishi simpatiya, yoqtirish yoki atraksiya bilan bog'liqdir.

Gozmanning ta'kidlashicha, juftlik munosabatlarida atraksiyaga turtki bo'luvchi omillarning eng muhimi - bu sherikning tashqi, jismoniy jihatdan yoqimtoyligi va uning ijtimoiy-demografik xususiyatlaridir. Ya'ni bir ko'rishda yoqtirib qolish, uning husniga rom bo'lish kabilar atraksiyaning dastlabki bosqichi bo'lib, bu aslida odamlar ongidagi bir bid'atga, ya'ni chiroyli odam aqlli va axloqli bo'lishi to'g'risidagi tasavvurlarga bog'liqdir. Ayniqsa, bunday tasavvur xotin-qizlarga nisbatan qo'llanilishi isbotlangan. Buni muallif grafik shaklida U-simon egrilik tarzida tasavvur etadi.

Yoqtirib qolishga turtki bo'luvchi ijtimoiy-demografik xususiyatlarga eng avvalo insonning jamiyatda tutgan o'rni, ijtimoiy maqomi, ma'lumoti darajasi, kasb-kori, moddiy ta'minlanganligi, millati va diniy e'tiqodi, qayerda, kimlar bilan yashashi kabilar kiradi. Ko'pincha ayni shu belgilar yoki xususiyatlar bilan yaqin bo'lgan insonlar o'zaro bir-birlarini tezroq yoqtirib qoladilar, chunki o'xshash belgilar yoki ko'ngildagi sifatlarning sherikda, tanishda mavjudligi unga nisbatan ijobiy fikr-mulohazalarning shakllanishiga, stereotiplarning yaxshi ma'noda uyg'unlashishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, yoqtirib qolishga shaxsning qadriyatlar tizimi, hayotdagi maqsadlarning mushtarakligi, bajarayotgan ijtimoiy rollarining yaqinligi, omadlik kabi qator jiddiy sifatlar ham turtki bo'ladi. Shuning uchun talabning talabani yoqtirib qolishi, tibbiyot xodimining aynan shu sohada ishlaydigan odamni bir ko'rishda "sevib qolishi", safarda birga bo'lganlarning yoki dam olish maskanlarida tanishib qolganlar o'rtasida romantik munosabatlarning uyg'onishi ehtimoli ko'proqdir.

Boshqa bir yo'nalish - bu sherigida o'zida yetishmayotgan, o'zida mavjud bo'lmagan sifatni topish va uni o'zidagi sifat bilan uyg'unlashtirishga intilish. Masalan, o'zi o'ta tortinchoq bo'lgan qizga dadil, gapga chechan yigitning yoqib qolishi ko'p kuzatilgan. Uchinchi yo'nalish ikkinchisiga yaqin, ya'ni yangi tanishda o'zidagi mavjud sifatlarning qarama-qarshisini izlash, masalan, yigit kamgap bo'lsa, shaddod, sergap qizni yoqtirib qoladi.

Bu kabi kentiklarni sherigi orqali to'ldirishga intilish ularga kelajakdagi munosabatlarda anchagina egiluvchan bo'lish va har biridagi yaxshi sifatlarni qadrlashni o'rgatadi. Yangi tanishlarning bir-birlariga noverbal belgilar orqali qiziqishi borligini bildiradigan, o'ziga jalb etadigan omillarga odamning aql-zakovati, qo'li ochiqligi, yumor hissi, dadillik, qizlardagi ibo kabi sifatlar kiradi.

Bu sifatlar hammaga yoqadigan sifatlar bo'lgani uchun ham yangi tanishlar o'zlarida aynan sherigiga yoqadigan shu sifatlarni namoyon etishga intiladilar. Er-xotin o'rtasida mavjud bo'lgan individual munosabatlardan tashqari, oilaviy munosabatlarda yana bir muhim munosabat borki, bu ona va bola o'rtasidagi munosabat sanalib, undagi noverbal reaksiyalar har ikki tomonga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Navbatdagi paragrafda xuddi shunga oid ma'lumotlar keltiriladi.

1-jadval: "Kommunikabel (kirishimli) misiz?" testining natijalari.

Ko'rsatkichlar	Yigitlar		Qizlar	
	Son	Foiz	Son	Foiz
3 va undan oz ball	-	-	-	-
4-8 ball	-	-	1	4
9-13 ball	6	24	9	36
14-18 ball	14	56	13	52



19-24 ball	3	12	2	8
25-29 ball	2	8	-	-
30-32 ball	-	-	-	-

Jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, sinaluvchi qizlarning 4 foizi 4-8 ball oralig'ida to'plab, o'zlarining dalig'uli, ko'ngli ochiq ekanliklarini namoyon etishdi. Kirishimlilik ularning joni-dili bo'lib, ular hamma narsadan xabardor insonlar hisoblanadi. Har qanday munozarada qatnashishni yaxshi ko'rishadi, shu bilan birga har qanday jiddiy masala ularning xunobini oshiradi. Ular yuzaki tasavvurga ega bo'lsa ham, har qanday masala yuzasidan so'z olishni yoqtirishadi.

Hamma yerda o'zini yaxshi his qiladi, oxirigacha muvaffaqiyatli hal qila olmasa ham, har qanday ishni zimmasiga olaveradi. Shuning uchun ham atrofdagilar ularga nisbatan ma'lum darajada xavfsirab va ishonqiramay munosabatda bo'lishadi.

9-13 ballni sinaluvchi yigitlardan 24 foiz, qizlardan esa 36 foizi to'plashdi. Bular anchagina kirishimli, qiziquvchan, so'zamol, har xil masalalar bo'yicha o'z fikrini bildirishni yaxshi ko'radigan tipga mosliklari bilan ajralib turadilar. Ular yangi odamlar bilan jon-jon deb tanishadigan, diqqat markazida bo'lishni yaxshi ko'radigan, har doim bajara olmasa ham, bironing iltimosini qaytarmaydigan insonlar hisoblanishadi. Ularda qunt, toqat va yangi odamlar bilan to'qnashganda jur'at yetishmaydi.

Respondentlar ichida 14-18 ballni to'plagan yigitlar 56 foizni, qizlar esa 52 foizni tashkil etishdi. Ularda me'yordagi kirishimlilik mavjud bo'lib, qiziquvchanlik, qiziqarli suhbatdoshni jon-jon deb eshitishga moyillik kuchli. Ular boshqalar bilan muloqotda yetarlicha toqatli, qiziqonlik qilmasdan o'z fikrini himoya qila oladi. Ko'ngilsiz o'y-hayollarsiz notanish odamlar bilan uchrashuvga tayyorlana olishadi. Shu bilan birga g'ala-g'ovur o'tirishlarni yoqtirmaydi, oilitalik va laqmalik ularning jahlini chiqaradi.

19-24 ball oralig'ida ball yiqqan respondentlar yigitlar o'rtasida 12 foizni, qizlar orasida esa 8 foizni tashkil etishdi. Ular ma'lum darajada kirishimli va notanish vaziyatda o'zini dadil tutadigan shaxslardir. Yangi muammolar ularni qo'rqitmaydi. Lekin yangi odamlar bilan xavfsirab munosabatga kirishadi. Tortishuv va munozaralarda og'rinib ishtirok etadilar. Ularning mulohazalarida asossiz kinoyalar ko'p bo'ladi.

25-29 ball oralig'ida ball to'plagan respondentlar faqat yigitlar orasida uchradi. Ular 8 foizni tashkil etishdi. Kamgaplik, odamovilik ularga xos. Ular yolg'izlikni yoqtiradi, shuning uchun do'stlari ham oz. Yangi ish va yangi odamlar bilan aloqa qilish zarurati ularni vahimaga solmasa ham, har holda ancha vaqtgacha muvozanatdan chiqaradi. Ular xarakteridagi bu xususiyatni bilishadi va o'z taqdiridan norozi bo'lishadi. Lekin faqat norozilik bilan cheklanib bo'lmaydi, balki xarakter xususiyatini o'zgartirish kerak bo'ladi. Bu ularning qo'lidan keladi, chunki ba'zan biror ishga ishtiyoq bilan kirishganida juda kirishimli bo'lib ketishadi. Shuning uchun ular o'z ustida ishlashlari, shug'ullanishlari lozim.

Biz o'z tadqiqotlarimiz davomida sinaluvchilarda "Men odamlarni qanchalik yaxshi tushunaman" testini o'tkazdik. Test natijalari quyidagi jadvalda berilgan:

2-jadval: "Men odamlarni qanchalik yaxshi tushunaman" testi natijalari

Ko'rsatkichlar	Yigitlar		Qizlar	
	Son	Foiz	Son	Foiz
60 ball	-	-	2	8
40 dan 59 ballgacha	11	44	20	80
20 dan 39 ballgacha	11	44	3	12
0 dan 19 ballgacha	3	12	-	-

Test natijalariga ko'ra, 60 ballgacha to'plagan sinaluvchilar faqat qizlar ichida 8 foizni tashkil etishi aniqlandi. Bu esa ularning odamlarni juda yaxshi tushunishini va o'zlarini a'lo darajada bilishlarini bildiradi. Shu bilan birga, atroflarida ularni o'rab turgan odamlarni va dunyoni ham yaxshi bilishlarini anglatadi. Ular kamdan-kam hollarda odamlarni anglashda yanglishadilar va odatda hamma narsani to'g'ri hal qiladilar. Ular o'z odatlarida qattiq turadilar va boshqalarga befarq emaslar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Odamlar haqida shunchaki yengillik bilan fikrlamaydilar, balki ular haqida to'g'ri mulohaza yuritishga harakat qilishadi. Ular sezgir va qiziquvchan bo'lib, bo'layotgan voqealarning ichiga kirishga va odamlarni qanday bo'lsalar, shundayligicha qabul qilishga harakat qilishadi. Natijalar bo'yicha ular liderdirlar va jamiyatga yetarli darajada foyda keltira oladilar.

Xulosa qilib aytganda, har ikkala tipga mansub bo'lgan shaxslar esa ekstravert, ya'ni o'ta muloqotga kirishuvchan ekanliklarini namoyon etadilar. Shu bilan birga, ular boshqalarni o'z ta'siriga bo'ysundirish, ishontirish va insonlarga ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lib hisoblanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gosudarev N.A. "Treugolny chelovek". M. Mol.gvar. 1991-270 s.
2. Goffmon Effekt "Predstavlenie sebya drugim // Sovremennaya sotsialnaya psixologiya zarubejom" (Teksti) M.:1984.-188-197 s.
3. Grimak L.P. "Obshenie sama soboy": M.: "Polit", 1991,-319 s.
4. Davletshin M.G "Odamlarni qanday farqlash va muloqatga kirishish mumkin". T.: Niz.TDPI. 1997.-30 b.
5. Zufarova M.Mirzajonova. "Insonlarda o'z-o'ziga munosabatning tarkib topishi" // O'zbek xarakterining ijtimoiy - psixologik xususiyatlari ilmiy - amaliy konferentsiya tezislari. T.: 1999.-22-23 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.